

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

N°1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIY DIPLOMATIYASI MARKAZIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIY OSIYODA MA'NAVY-SIYOSIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tolipov Abdug'affor,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası boshlig'i,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOY PROFILAKTİKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839962>

ANNOTATSIYA

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ijtimoiy profilaktikasining amalga oshirilishi, faqat yuridik tizim doirasida emas, balki keng ijtimoiy strukturaviy va madaniy omillar kesishgan joyda sodir bo'ladi. Ushbu muammoni sotsiologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilish uchun hozirgi zamon sotsiologiyasi – xususan, ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi doirasidagi yondashuvlar asosida baholash zarur. MDH davlatlarida voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish amaliyoti, ko'p hollarda, post-sovet merosidan olingan ma'muriy-nazorat yondashuvlariga tayanadi. Mazkur maqolada Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va ularni oldini olishda ijtimoiy profilaktikaning amalga oshirish mexanizmlari tahlil etilgan.

Kalit sozlar: ijtimoiy institutlar, maktab, oila, mahalla, sotsializatsiya, voyaga yetmaganlar, deviant hulq-atvor, marginalizatsiya, huquqbuzarlik, ijtimoiy profilaktika amaliyoti, sotsiologik-pedagogik xizmatlar, ijtimoiy normalarga moslashtirish, institutlararo integratsiya.

Толипов Абдугаффор,

Зав.кафедрой общественно-гуманитарных наук Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан,
доктор философии по социологическим наукам (PhD), доцент

ПРАКТИКА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В СТРАНАХ СНГ

АННОТАЦИЯ

Реализация социальной профилактики подростковой преступности в странах СНГ происходит не только в рамках правовой системы, но и на пересечении широкого спектра социально-структурных и культурных факторов. Для углубленного анализа этой проблемы с социологической точки зрения необходимо оценить ее на основе подходов современной социологии – в частности, социологии социальной структуры, институтов и образа жизни. Практика профилактики подростковой преступности в странах СНГ во многих случаях опирается на административно-надзорные подходы, унаследованные от постсоветского наследия. В данной статье анализируются преступления, совершаемые несовершеннолетними

в странах Содружества Независимых Государств, и механизмы осуществления социальной профилактики для их предотвращения.

Ключевые слова: социальные институты, школа, семья, соседство, социализация, несовершеннолетние, девиантное поведение, маргинализация, преступность, социальная профилактическая практика, социолого-педагогические услуги, адаптация к социальным нормам, межинституциональная интеграция.

Tolipov Abdugaffor,

Head of the Department of Social Sciences and Humanities
of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological Sciences, Associate Professor

PRACTICE OF SOCIAL PREVENTION OF JUVENILE DELINQUENCY IN CIS COUNTRIES

ABSTRACT

The implementation of social prevention of juvenile delinquency in the CIS countries occurs not only within the framework of the legal system, but also at the intersection of a wide range of socio-structural and cultural factors. For an in-depth analysis of this problem from a sociological point of view, it is necessary to assess it on the basis of the approaches of modern sociology - in particular, the sociology of social structure, institutions and lifestyle. The practice of preventing juvenile delinquency in the CIS countries in many cases relies on administrative and supervisory approaches inherited from the post-Soviet heritage. This article analyzes crimes committed by minors in the Commonwealth of Independent States and the mechanisms for implementing social prevention measures to prevent them.

Keywords: social institutions, school, family, neighborhood, socialization, minors, deviant behavior, marginalization, crime, social preventive practice, sociological and pedagogical services, adaptation to social norms, interinstitutional integration.

KIRISH

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ijtimoiy profilaktikasining amalga oshirilishi, faqat yuridik tizim doirasida emas, balki keng ijtimoiy strukturaviy va madaniy omillar kesishgan joyda sodir bo'ladi. Ushbu muammoni sotsiologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilish uchun hozirgi zamon sotsiologiyasi – xususan, ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi doirasidagi yondashuvlar asosida baholash zarur. MDH davlatlarida voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish amaliyoti, ko'p hollarda, post-sovet merosidan olingan ma'muriy-nazorat yondashuvlariga tayanadi. Bu esa huquqbuzarlikni soddalashtirib, uni faqat alohida shaxsning axloqiy yoki huquqiy muammosi sifatida talqin qilishga olib keladi. Aksincha, zamonaviy sotsiologik tahlillar, ayniqsa struktural-funksional yondashuv (T.Parsons), institutsional sotsiologiya (P.Berger, T.Luckmann) va turmush tarzi paradigmasi (G.Simmel, P.Bourdieu) voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining makro va mikro omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratadi.

MDH hududidagi ko'plab davlatlarda (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va boshqalar) bu institutlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalar natijasida zaiflashgan. Masalan, oilaning ijtimoiy tayanch instituti sifatida barqarorlik darajasi pasaygani, o'z navbatida, voyaga yetmaganlar orasida emotsional va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarmoqda. Parsonsning tizimli yondashuviga ko'ra, jamiyat murakkab ijtimoiy tizim sifatida turli institutlar orqali o'zining barqarorligini saqlaydi va funksional birlikda harakat qiladi.

Bunday tizimda oila, maktab, diniy birliklar hamda ommaviy axborot vositalari nafaqat ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi mexanizmlar sifatida, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi va jamiyatga moslashuvi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beruvchi asosiy strukturalar sifatida namoyon bo'ladi. Afsuski, MDH hududidagi ko'plab

davlatlarda, jumladan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston singari mamlakatlarda so‘nggi o‘n yilliklarda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalar ushbu institutlarning funksional salohiyatini izdan chiqarmoqda. Bu esa jamiyatning ichki uyg‘unligi va ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, oila instituti, avvallari shaxs tarbiyasi va ijtimoiy me‘yorlarni singdirishda asosiy bo‘g‘in hisoblangan bo‘lsa-da, bugungi kunda bu rol sezilarli darajada zaiflashgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot mavzusi yuzasidan ko‘plab tadqiqotchilar o‘z asarlarida bir qator fikr-mulohazalarni keltirib o‘tgan. Jumladan, tadqiqotchilardan, P.Berger va T.Lukmanning “ijtimoiy haqiqatni konstruksiya qilish” nazariyasidan kelib chiqilsa, huquqbuzarlikka moyil yoshlar ko‘pincha “norasmiy ijtimoiy haqiqat”ni tan oladi, ya‘ni ular uchun jinoiy guruhlar va ularning qadriyatlari ijtimoiy muvofiqlik mezoniga aylanadi [1, – C.67-69].

Rus kriminologi A.I.Dolgova jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni sotsiologik tahlil qilgan holda, oilaviy buzilishlar, pedagogik nazoratning sustligi va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashtirilmaganligini asosiy muammolar qatoriga kiritgan [2, – C.112-113]. Olimlardan F.T.G‘aniyev va D.U.Axunovlar fikriga ko‘ra, profilaktika faoliyatining asosiy muammolari quyidagilardan iborat: birinchidan, tizimga integratsiyalashgan psixologik va pedagogik yondashuvlarning zaifligi; ikkinchidan, oilaviy muhitdagi ijtimoiy muammolarning tizimli hisobga olinmasligi; uchinchidan, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi va monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi [3, – B.103-106].

Carina Herbei va Eugeniu Ladari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, noto‘g‘ri ota-onalik uslublari, emotsional sovuqlik yoki haddan tashqari himoya kabi omillarning, shuningdek, yoshdagi noto‘g‘ri shakllangan kognitiv sxemalarning zo‘ravonlik va huquqbuzarlik bilan bog‘liq xatti-harakatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [4, – C.137–158].

Berger va Berger esa sotsiologik yondashuv asosida jamoa tashkilotlarini jalb qilish orqali jinoyatchilikning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqqan. Ular mahalliy darajada jamoaviy kuchlarni safarbar qilish, maktab va ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi. Ularning "ijtimoiy harakat" modeli aynan jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni tiklashga qaratilgan bo‘lib, bu ijtimoiy tuzilma kontekstida dolzarb hisoblanadi [5; vol.12, p.9.]. Qozog‘istonda o‘tkazilgan tadqiqotlarda ijtimoiy norozilik va ijtimoiy adolatsizlik tuyg‘ulari voyaga yetmaganlarning huquqbuzar guruhlar bilan identifikatsiyalanishiga sabab bo‘layotgani aniqlangan [6, – C.85].

Rossiyada olib borilgan sotsiologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jinoyat ishlari bo‘yicha voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan ichki ishlar bo‘linmalari, maktab ma‘muriyati, psixologlar va ijtimoiy xodimlar o‘rtasidagi koordinatsiya zaif, natijada profilaktika chora-tadbirlari fragmentar tus olgan [7, – C.45]. O‘zbekistonda esa o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari va mahalliy IIB o‘rtasidagi axborot almashinuvi zaifligi sababli “nosoz o‘smirlar” toifasi aniq tahlil qilinmaydi va moslashtirilgan yordam ko‘rsatilmaydi [8, – C. 22].

Karapuxina T.V. ijtimoiy tizimda “omolajivanie” – jinoyat sodir etayotganlarning yoshi pasayib borayotgani holatini mahalla va maktablar tomonidan to‘liq anglanmagan holat deb izohlaydi [9, – C.43].

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasida xalqaro me‘yorlarning mahalliy kontekstga moslashtirilmamasligi muhim muammolardan biridir. Masalan, BMTning Er-Riyod rahbarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar MDH makonida faqat normativ darajada qabul qilingan, biroq amaliyotda sotsiomadaniy kontekstga integratsiyalanmagan [10, – C.69].


MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirish amaliyoti – bu postsovet sotsiumlari ijtimoiy tuzilmasi, huquqiy institutsionallik darajasi hamda turmush tarzining transformatsion xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanayotgan murakkab ijtimoiy mexanizmdir. Bunday tizimni sotsiologik jihatdan tahlil etishda strukturaviy-funksional yondashuv, ijtimoiy institutlararo o‘zaro aloqadorlik, shaxs va muhit munosabati, huquqiy madaniyat va sotsial kontrol kategoriyalariga tayanish muhimdir. Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi MDH (Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligi) mamlakatlarida dolzarb ijtimoiy-sotsiologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu hodisani sotsiologiyani "ijtimoiy tuzilish", "ijtimoiy institutlar" va "turmush tarzi" kabi tushunchalari kontekstida tahlil qilish, nafaqat uning ildiz omillarini anglash, balki samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

MDH miqyosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish bo'yicha yagona yondashuv yo'q, biroq barcha mamlakatlarda ham ijtimoiy institutlarning hamkorligini kuchaytirish, sotsiologik tahlillarning sifatini oshirish va huquqiy ongni yuksaltirish eng muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu muammo yuzasidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi choralari samaradorligi



1-rasm. MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi choralari samradorligi

Yuqoridagi grafik diagramma MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasiga oid muhim chora-tadbirlarning sotsiologik baholanishini ko'rsatadi. Tahlil natijalari quyidagicha:

Ota-onalar bilan ishlash barcha mamlakatlarda eng yuqori baholangan chora bo'lib, ayniqsa O'zbekistonda (80%) va Rossiyada (78%) bu chora samarador deb topilgan. Bu oilaning ijtimoiy nazoratdagi asosiy o'rni va ta'sir kuchini aks ettiradi.

Maktab tizimi orqali nazorat ham yuqori samarali deb topilgan (78% O'zbekistonda, 70% Rossiyada), bu esa ta'lim muassasalari voyaga yetmaganlarni ijtimoiylashtirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik Rossiyada eng yuqori baholangan (75%), lekin Tojikistonda nisbatan past (60%). Bu davlatlar o'rtasidagi huquqiy mexanizmlarning farqini anglatadi.

Mahalla yoki fuqarolar yig'inlarining roli Qirg'izistonda (64%) va Tojikistonda (62%) nisbatan yuqori baholangan bo'lib, bu jamiyat ichki resurslariga tayanishning dolzarbligini bildiradi.

Media vositalari orqali profilaktika barcha mamlakatlarda eng past baholangan choradir (45–52%), bu esa raqamli vositalarning hali yetarlicha samarali ishlatilmayotganini anglatadi.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ota-onalar bilan ishlash va maktab tizimi asosiy omillar sifatida tan olinmoqda, bu esa ijtimoiy institutlararo integratsiyalashgan yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Oila ichidagi ajralishlar sonining ortishi, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ota-onaning mehnat migratsiyasiga majbur bo'lishi, farzandlar taqdirini bevosita nazoratdan chetda qoldirayotgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada voyaga yetmaganlar orasida emotsional beqarorlik, identitet

inqirozi, ijtimoiy rolda yo'qolish holatlari, agressiv xulq-atvor yoki deviant harakatlarning ko'paygani kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat oilaviy tuzilmaning, balki maktab, diniy institutlar va OAVning ham ijtimoiylashtiruvchi vazifalarini yetarli darajada bajara olmayotganidan dalolat beradi. Bizning nazarimizda, bu holatni faqat iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar bilan bog'lash yetarli emas; bu – jamiyatda qadriyatlar ierarxiyasining o'zgarishi, an'anaviy va zamonaviylik o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kuchayishi, shuningdek, ijtimoiy institutlar o'rtasida avval mavjud bo'lgan ko'p qirrali ko'maklashuv va uyg'unlik tizimining izdan chiqqanligi natijasidir. Shu boisdan, ushbu muammolarni hal etishda institutlararo hamkorlik, qadriyatlarni qayta tiklash va ijtimoiy institutlarning funksional salohiyatini tiklash bo'yicha chuqur o'ylangan, tizimli yondashuvga asoslangan strategiyalar zarur deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy institutlar, ayniqsa maktab va ta'lim muassasalari, o'z oldiga qo'yilgan ijtimoiylashtirish vazifalarini to'liq bajarmagan hollarda, voyaga yetmaganlar tomonidan muqobil – ko'pincha deviant – turmush tarzi modellarini egallashiga olib keladi. Ijtimoiy institutlarning, xususan, maktab va boshqa ta'lim muassasalarining ijtimoiylashtirish vazifasini to'laqonli bajarishi, jamiyatning barqarorligi va yosh avlodning sog'lom ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo, ushbu institutlar o'z funksiyalarini yetarli darajada ado eta olmagan hollarda, yoshlar orasida muqobil ijtimoiy reallik modellarining shakllanishi va ommalashuvi kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida deviant xatti-harakatlar va huquqbuzarlikka moyillikning ortishi bilan kechadi. Ijtimoiy antropologiya va sotsiologiyada asosiy konsepsiyalardan biri bo'lgan P.Berger va T.Lukmanning “ijtimoiy haqiqatni konstruksiya qilish” nazariyasi doirasida bu jarayon yanada chuqurroq izohlanadi.

Ularning nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy haqiqat insonlar o'rtasidagi kundalik muloqot, tajriba va institutsional strukturalar orqali konstruksiya qilinadi, ya'ni ijtimoiy reallik degani – bu ob'yektiv mavjudlik emas, balki ijtimoiy sub'yektlar tomonidan doimiy ravishda yaratilayotgan va mustahkamlanayotgan jarayondir. Shu ma'noda, ijtimoiy institutlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan sharoitda, huquqbuzarlikka moyil yoshlar rasmiy ijtimoiy haqiqatdan voz kechib, o'z atrofida mavjud bo'lgan “norasmiy” ijtimoiy tuzilmalarni qabul qiladilar. Bu norasmiy tuzilmalar, ko'pincha, jinoiy guruhlar ko'rinishida namoyon bo'ladi va ular o'zining ichki qadriyatlari, me'yorlari va muvofiqlik standartlariga ega bo'lgan alternativ ijtimoiy makonni tashkil etadi. Yoshlar bu guruhlar orqali ijtimoiylik, tan olinuvchanlik va identifikatsiya ehtiyojlarini qondiradi.

Natijada, rasmiy ijtimoiy institutlar tomonidan taklif etilgan ijtimoiylashuv modeli emas, balki kriminal yoki deviant qadriyatlarga asoslangan subkultural normalar ustuvorlik kasb eta boshlaydi. Bizning nazarimizda, bu jarayon faqat individuallar darajasida emas, balki makroiijtimoiy strukturaviy inqiroz alomatidir. Maktab, oilaviy muhit va mahalla tizimi singari asosiy ijtimoiy institutlar o'zaro uzviy bog'langan tizim sifatida ishonch, qat'iylik va ma'naviy yetakchilik kabi ijtimoiy funktsiyalarni bajara olmagan taqdirda, yoshlar ongida shakllanuvchi “ijtimoiy haqiqat” tushunchasi ko'p holatlarda rasmiy emas, balki marjinal ijtimoiy tajribalarga asoslanadi. Shu bois, ijtimoiy muvozanat va tartibni saqlash uchun avvalo ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy institutlarning ichki konsolidatsiyasi, ularning ijtimoiy kapitalga aylanishi va yoshlar ongiga ijtimoiy mas'uliyatli qarashlar singdirishdagi salohiyati tubdan mustahkamlanmog'i lozim. Aks holda, norasmiy ijtimoiy haqiqatlar jamiyat uchun xavfli bo'lgan yangi normalarni yaratishda davom etaveradi.

O'zbekiston tajribasida esa “Yoshlar ishlari agentligi” va “mahalla” tizimi orqali ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ammo bu faoliyat ko'p hollarda aksiltizimli yondashuvga ega bo'lib, ya'ni voyaga yetmaganlar faqat nazorat obyekti sifatida ko'riladi. Bu esa ularda beqaror identitet, norozilik va radikal protest shakllariga moyillikni kuchaytiradi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha MDH mamlakatlaridagi ijtimoiy profilaktika tizimi hali hamon reaksion va ma'muriy xususiyatda qolmoqda. Sotsiologik nuqtayi nazardan qaraganda esa, profilaktika yondashuvi ijtimoiy institutlar faoliyatining uyg'unlashgan tizimiga asoslanmog'i zarur. Ayniqsa, oilaning mustahkamlanishi, ta'lim tizimining inklyuziv va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi shakllari, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirish bu borada hal qiluvchi omil bo'la oladi.

MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasi amaliyoti ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi kontekstida sotsial-iqtisodiy, huquqiy-madaniy hamda siyosiy o'ziga xosliklar bilan bevosita bog'liq. Ushbu kontekstda, MDH davlatlarining post-sovet merosidan kelib chiqadigan umumiy muammolari – byurokratik boshqaruv uslublari, sotsiologik monitoringning zaifligi va ijtimoiy institutlarning zaif integratsiyalashuvi – voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarga qarshi tizimli profilaktika mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Rossiyada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasida oila, maktab, ichki ishlar tizimi va sotsiologik-pedagogik xizmatlarning hamkorligiga tayaniladi. Biroq, bu tizimda ijtimoiy tengsizlik, oilaviy beqarorlik va tibbiy-psixologik xizmatlarning yetarli emasligi profilaktika ishlarining samaradorligini pasaytiradi. Bu borada Qozog'iston tajribasi esa profilaktika faoliyatining institutsional asoslanganligi va huquqiy mexanizmlarining murakkabligi bilan ajralib turadi.

Masalan, “Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risida”gi Qonun individual yondashuv, oilani qo'llab-quvvatlash va jamiyatning kompleks ishtirokiga asoslanadi. Bu yondashuvlarda turmush tarzidagi barqarorlikka urg'u berilishi, ijtimoiy institutlarning (maktab, sog'liqni saqlash muassasalari, vasiylik organlari) integratsiyasi alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda esa ushbu sohadagi ishlar ichki ishlar organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida olib borilmoqda. Biroq, bu tizimda ham ijtimoiy profilaktika samaradorligini pasaytiruvchi omillar mavjud – jumladan, sotsiologik tahlillar kamligi, huquqiy madaniyatning zaifligi va turmush tarzidagi nomutanosibliklar. Ijtimoiy profilaktika jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oladigan ijtimoiy-huquqiy harakat sifatida talqin qilinmoqda, ammo bu harakatda reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish jarayonlari zaifligi ta'kidlanmoqda.

Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi, ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, oilaviy institutlar, psixologik-pedagogik xizmatlar va fuqarolik jamiyatining boshqa subyektlari o'rtasidagi koordinatorlik tizimiga asoslanadi. O'zbekistonda esa huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalla instituti, ta'lim muassasalari va ichki ishlar profilaktika inspektorlarining hamkorligi asosiy rol o'ynaydi.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ayniqsa, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi institutlar va mehnat bozorining beqarorligi voyaga yetmaganlarning ijtimoiy ijtimoiylashuvi jarayoniga bevosita ta'sir qiladi.

Ijtimoiy institutlar, xususan, maktab va oila, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy normalarga moslashtirishda yetakchi rol o'ynaydi. Biroq, Bu esa sotsiologik yondashuvda oilaviy institutlar reproduktiv sotsiologiya va psixososial holatlarning asosi sifatida qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi. O'z navbatida, ijtimoiy turmush tarzi va undagi o'zgarishlar, masalan, yoshlar orasida keng tarqalgan marginal guruhlariga integratsiya, jinoiy submadaniyatga kirib borish holatlari, huquqbuzarlik ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy institutlar, xususan, oila va maktab, inson hayotining dastlabki bosqichlarida ijtimoiylashuvning asosiy vositachilari sifatida voyaga yetmagan shaxsni ijtimoiy normalar, qadriyatlar va jamiyatga mos turmush tarzi modellariga yo'naltirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, ijtimoiy reproduksiya faqat iqtisodiy resurslarning avloddan-avlodga uzatilishi emas, balki psixososial va madaniy kapitalning barqaror tarzda takror ishlab chiqarilishi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Bizning nazarimizda, oilaning sotsiologik tahlilini faqat struktura va rol tizimlari orqali emas, balki uni murakkab psixosotsial muhit sifatida ko'rib chiqish lozim, chunki aynan shu muhitda bola ijtimoiy reallikni idrok etish, baholash va unga moslashish strategiyalarini o'zlashtiradi. Aks holda, yosh avlod rasmiy ijtimoiy institutlar taqdim etgan muvofiqlik modellarini emas, balki ularning atrofida mavjud bo'lgan marginal guruhlar va jinoiy submadaniyatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bunday submadaniyatlar, o'z navbatida, yoshlar ongida jamiyatga qarshi yo'naltirilgan alternativ qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarni shakllantirib, huquqbuzarlik ehtimolini oshiradi. Bu fikrdan kelib chiqib, bizningcha, har qanday preventiv yondashuv, eng avvalo, oilaning emotsional va psixologik

resurslarini mustahkamlash, ijtimoiy institutlarning esa bu jarayonni qo'llab-quvvatlashdagi real va institutsional salohiyatini oshirishga qaratilishi lozim. Aks holda, voyaga yetmaganlar orasida ijtimoiy moslashuv o'rniga begonalashuv, norasmiy qadriyatlar va deviant modelga integratsiyalashuv ustuvorlik kasb etishda davom etadi.

Ularning jamiyat bilan o'zaro aloqasi zaif, ijtimoiy kapitali cheklangan va ijtimoiy inklyuzivlikdan mahrum bo'lgan holati, ularni deviant subkulturalar va jinoyatga moyil guruhlar bilan identifikatsiyalashga majbur qiladi. Bizning nazarimizda, bu yondashuv MDH davlatlari, ayniqsa, postsovet ijtimoiy tuzumlarida yanada dolzarb tus oladi, chunki bu hududlarda ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashuvi, etnik va madaniy marginalizatsiya, shuningdek, davlat institutlariga nisbatan keng tarqalgan ishonchsizlik holatlari mavjud bo'lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik ehtimolini oshiruvchi strukturaviy omillar sifatida harakat qiladi. Shu bois, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan siyosat nafaqat repressiv va jazoga asoslangan yondashuvlarni, balki ijtimoiy inklyuzivlikni oshirish, adolatli institutlar yaratish, etnik va madaniy xilma-xillikni integratsiya qilish, shuningdek, oilaviy va jamoaviy resurslarni safarbar etishga qaratilgan strategiyalarni ham qamrab olishi zarur. Jinoyatchilikka qarshi kurashda ijtimoiy islohotlarning, fuqarolik jamiyatining faollashuvi va ijtimoiy institutlarning qayta legitimlashtirilishining o'zni ayni paytda boshqa hech qachongidek muhimdir. Shunday ekan, zamonaviy yondashuvlarda jinoyatchilik ijtimoiy muammolar kompleksining simptomatik ifodasi sifatida qaralishi va unga nisbatan faqat jazolovchi emas, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy tuzatishlarni ham nazarda tutuvchi inklyuziv siyosat yuritilishi shart.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi masalasini chuqur va ko'p qirrali yondashuvlar asosida tahlil qilish, zamonaviy ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biridir. Bu borada Springer va Roberts tomonidan ilgari surilgan nazariy asoslar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini faqat individuallashtirgan patologik holat emas, balki kengroq sotsiologik, psixologik va institutsional omillar tizimi sifatida tushunishga undaydi. Ularning ta'kidlashicha, jinoyatchilik ijtimoiy o'zgarishlar, institutsional zaifliklar, ayniqsa, ijtimoiy institutlarning o'z funksiyalarini yetarli darajada bajara olmasligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat rehabilitatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvlarni zarur etadi. Shuningdek, ular jinoyat profilaktikasining markaziga ijtimoiy institutlar – oila, maktab, jamoat tashkilotlari va davlat ijtimoiy xizmatlari – ishonchligini va barqarorligini tiklashni qo'yish lozimligini asoslaydi. Ayniqsa global migratsiya, ijtimoiy beqarorlik va transmilliy jinoyatchilik kuchaygan sharoitda, xalqaro hamkorlik asosida barqaror huquqiy va ijtimoiy muhit yaratish, jinoyatlarning oldini olishda muhim strategik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv universal ijtimoiy qadriyatlar bilan mahalliy kontekst o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga intiladi.

Bunday kompleks yondashuvlar qatorida Berger va Berger tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy harakat" modeli ham alohida ahamiyatga ega. Ular jinoyatchilikka qarshi kurashishda markazlashtirilgan choralar bilan bir qatorda, mahalliy darajada jamoa tashkilotlarini jalb etish, ijtimoiy xizmatlar va ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashgan strategiyalarni qo'llash zaruriyatini asoslaydi. Ularning fikricha, jinoyatchilikning ildizlari jamiyat ichidagi ijtimoiy nomutanosibliklarda bo'lgani sababli, bu nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan jamoaviy harakatlar ijtimoiy muvozanatni tiklashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa jinoyatchilikka faqat jazolovchi yondashuv emas, balki keng qamrovli ijtimoiy islohotlar tizimi orqali qarashni talab qiladi.

Bizning nazarimizda, ushbu nazariyalar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga yondashishda bir-birini to'ldiruvchi hamda amaliyotga yo'naltirilgan muhim manbalar sifatida qaralishi lozim. Jinoyatchilik faqat individual tanlov emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli sifatida ko'rilmog'i lozim. Shu boisdan, jinoyatning ildiz sabablarini tahlil qilishda ijtimoiy institutlar, huquqiy tizimlar va jamoa mexanizmlarining o'zaro integratsiyalashuvi asosida kompleks yondashuvni shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi masalasi, ayniqsa postsovet makonida – MDH davlatlarida – nafaqat yuridik, balki sotsiologik, madaniy va axloqiy jihatdan ham murakkab fenomen

hisoblanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid chora-tadbirlar, aksar hollarda, ijtimoiy struktura va institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning murakkab mexanizmlarini hisobga olmagan holda, formal yondashuvga asoslanadi. Bu esa tizimda takroriy huquqbuzarliklar (retsdivlar) sonining ortishiga sabab bo'lmoqda. MDH davlatlarida, jumladan, O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasi shuni ko'rsatadiki, profilaktika tizimi ko'pincha institutsional nomuvofiqlik va ijtimoiy resurslarning yetishmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, ushbu tahlil doirasida profilaktika amaliyotining ijtimoiy struktura (makro va mezo darajada), turmush tarzi (mikro darajada) va institutlar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim va oilaviy institutlar) kontekstida murakkab sotsiologik sintezga asoslangan tahlili taqdim etiladi.

Birinchidan, ijtimoiy struktura, ayniqsa, ijtimoiy tabaqalanish va marjinal guruhlarining kengayishi fonida, voyaga yetmaganlar orasida deviant xatti-harakatlarning shakllanishi uchun qulay zamin yaratadi. Shaxsning ijtimoiy rolini aniqlovchi omillar – ta'lim darajasi, bandlik holati, oilaviy farovonlik – bevosita delinkvent xatti-harakatlar bilan bog'liq.

Ikkinchidan, institutlar faoliyatidagi nomuvofiqlik profilaktikaning institutsional samaradorligini susaytiradi.

Uchinchidan, turmush tarzining o'ziga xos ijtimoiy profili, xususan, oilaviy muhit va mahalla tizimi doirasida ijtimoiy nazorat vositalarining zaiflashuvi, voyaga yetmaganlar delinkventligi uchun sharoit yaratmoqda. Ko'plab MDH mamlakatlarida oilaviy inqiroz, migratsiya oqibatidagi parokandalik, ota-onalik nazoratining yo'qligi profilaktika tizimining imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasida xalqaro me'yorlarning mahalliy kontekstga moslashtirilmasligi muhim muammolardan biridir. Profilaktika tizimida "sanksionlovchi" (jazoga asoslangan) yondashuv ustun bo'lib, "qo'llab-quvvatlovchi" (ijtimoiy integratsiyaga yo'naltirilgan) yondashuv hali to'liq shakllanmagan. O'zbekistonda ham psixopedagogik yondashuvlarning huquqiy tizim bilan integratsiyalanmaganligi tizimli profilaktikaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shunday qilib, MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining amaliyoti ijtimoiy struktura, institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi kontekstida tizimli va murakkab muammo sifatida qaralishi zarur. Har qanday samarali profilaktika tizimi institutsional koordinatsiya, turmush tarzining mahalliy xususiyatlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini mukammal amalga oshirish uchun jamiyatning strukturaviy-tashkiliy mexanizmlarini mustahkamlash, institutlararo integratsiyani kuchaytirish, profilaktik ishlarni sotsiologik monitoringga asoslash va turmush tarzining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar tizimiy tarzda joriy etilishi zarur. Aks holda, jazoga asoslangan va yakkalanib qolgan chora-tadbirlar faqat qisqa muddatli samara berishi mumkin, ammo ijtimoiy ong va ijtimoiy adolat mezonlarini tiklay olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, MDH davlatlarida voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarlik muammosini faqat individual nuqtayi nazardan emas, balki kengroq sotsiologik kontekstda – ijtimoiy institutlar, tuzilma va turmush tarzi bilan bog'liq holda tahlil qilish zarur. Bu esa, ijtimoiy profilaktika siyosatlarini yanada chuqurlashtirish va institutsional muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining ijtimoiy profilaktikasi samaradorligi, ayniqsa ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarni tushunish va ular asosida izchil strategiyalar ishlab chiqishga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarlikni soddalashtirib faqat yuridik muammo deb emas, balki chuqur sotsiologik masala sifatida ko'rib chiqish lozim. Tanqidiy tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, MDH davlatlarining aksariyatida huquqbuzarliklarni ijtimoiy profilaktika qilish tizimi kuchli ierarxik-boshqaruv yondashuviga asoslanadi.

Bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni (individual ishlash, psixososial yordam, reabilitatsiya) chetlab o'tadi. Ayni paytda, strukturaviy muammolar (bandlik darajasi pastligi, urbanizatsiya oqibatida oilaviy nazoratning zaiflashuvi, ta'lim tizimidagi inqiroz belgilari) turmush tarzining degradatsiyasiga olib kelmoqda. Bu holat ijtimoiy institutlarning (oilalar, maktab, mahalla) disfunktsiyasini kuchaytiradi va natijada jinoyatchilikning yosharishiga xizmat qiladi. Shu

boisdan, huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini faqat repressiv emas, balki sotsiogen yondashuv orqali tashkil etish zarur: bu yondashuvda shaxs, institut va muhit o'rtasidagi interaktiv munosabatlar asosida barqarorlik va sotsiomadaniyatning uzviyligi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. – М.: Medium, 1991. – 159 б. – С.67-69.
2. Долгова А.И. Социальная профилактика преступлений. – М.: Юридлит, 2021. – 246 б. – С.112-113.
3. G'aniyev F.T., Axunov D.U. Huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olishning rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – №2. – В. 103-106.
4. Herbei C., Ladari E. (2014). Aspects Regarding the Relationship between Aggression and Juvenile Delinquency. – pp. 137-158.
5. Berger R.J., Berger C. (1985). Community Organization Approaches to the Prevention of Juvenile Delinquency. Journal of Sociology and Social Welfare, vol.12, p.9.
6. Мухаметгалиев И.Г. Криминализация сознания и поведения современной российской молодежи: проблемы преодоления. – Казань, 2000. –148 с. – С.85.
7. Бжассо А.М. Социальный контроль преступности несовершеннолетних в современной России. – Новочеркасск, 2001. – С.45.
8. Павлова В.В. Социологические аспекты профилактики негативных форм девиантного поведения подростков. – Ставрополь, 1999. – С.22.
9. Карпухина Т.В. Новые формы социализации несовершеннолетних правонарушителей: социологический аспект. – М., 2002. – С.43.
10. Хамитова Г.Ш. Правовой нигилизм молодежи как социальная проблема современного российского общества. – Уфа, 2010. – С.69.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000